



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI



NAJ
AKADEMIK E.A. BUKETOV
NOMIDAGI QARAGANDA
UNIVERSITETI
(QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI)

GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY ILMIY YO'NALISHLARI

International scientific and practical
online conference

ӘЛЕУМЕТТІК ЖӘНЕ ГУМАНИТАРЛЫҚ
ФЫЛЫМДАРДЫҢ ӨЗЕКТІ МӘСЕЛЕЛЕРЕІ

27 April 2023 TASHKENT

Education this is progress!

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
FAKULTETI**

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**“GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY
ILMIY YO‘NALISHLARI”**

**«ЭЛЕУМЕТТИК ЖӘНЕ ГУМАНИТАРЛЫҚ ҒЫЛЫМДАРДЫҢ ӨЗЕКТІ
МӘСЕЛЕЛЕРІ»**

xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

M A T E R I A L L A R I

Akademik E.A.Buketov nomidagi Qarag‘anda (Qozoqiston) universiteti bilan
hamkorlikda o‘tkazilgan

Toshkent – 2023

UO‘K: 37.014.1

KBK: 74.267

Gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy Ilmiy yo‘nalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi / Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. — T.: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti. 2023 . 557 bet.

Bugungi, jahon sahnasida globallashuv jarayonlari serqirra tus olayotgan, jamiyatimizda axloq tarbiyasi hayot-mamot masalasiga aylangan bir davrda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishiga e’tiborning kuchaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘z tarixini hurmat qiladigan, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan, ma’naviy va axloqan barkamol kadrlarni tarbiyalash masalalari umummilliy, umumdavlat miqyosidagi eng dolzorb masaladir.

Mazkur to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti hamda akademik E.A.Buketov nomidagi Qarag‘anda (Qozog‘iston) universiteti bilan hamkorlikda 2023-yil 27-aprelda tashkil etilgan “**Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning zamonaviy ilmiy yo‘nalishlari**”, “**Әлеуметтік және гуманитарлық ғылымдардың өзекті мәселелері**” mavzusidagi o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallaridan iborat.

Konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yilda xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnikaviy tadbirlar rejasiga muvofiq hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik E.A.Buketov nomidagi Qarag‘anda universiteti o‘rtasidagi hamkorlik shartnomasiga muvofiq tashkil etilgan.

Ilmiy anjumanda respublikamiz hamda xorijiy mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida, kasbiy ta’lim hamda umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar, doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy maqolalari jamlangan.

To‘plam uchun mas’ullar:

Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov f.f.d., professor.

Ilmiy muharrirlar: B. Xoliqov filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), I. Aslonov psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: B. Elov texnika fanlari nomzodi, dotsent, R. Sabirova psixologiya fanlari nomzodi, professor (Qozog‘iston).

Tahrir hay’ati: R. Mullaxmetov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, V. Sattorov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, D. Arapbayeva psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, S. Haydarov pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), A. Buranov katta o‘qituvchi, H. Akramov katta o‘qituvchi, G. Jobborova katta o‘qituvchi, F. Karimov katta o‘qituvchi, M. Karimova katta o‘qituvchi.

Tuzuvchilar: I. Aslonov, D. Arapbayeva, K. Abdurazakova.

Sahifalovchi va dizayner: R. Atamuxammedov

Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

ISBN 978-9943-9546-0-1

© “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2023y

© ToshDO‘TAU, 2023

ЖОҒАРЫ ОҚУ ОРЫНДАФЫ ОҚЫТУ ПРОЦЕСІНІҢ ПСИХОЛОГИЯЛЫҚ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ Исина Салтанат Сериккалиевна.....	414
KICHIK GURUH SIFATIDA FUTBOL JAMOASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Majidov Jasur Baxtiyarovich.....	418
MUMTOZ LIRIKA MAVZU KO‘LAMI TIPOLOGIYASINI O‘RGANISH Tadjibayev Musajan Sabirovich.....	422
EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY MUHITNING TA’SIRI Jobborova Gulnoza Kadamovna.....	426
SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING GENDER XUSUSIYATLARI Sirojiddinova Soxiba Mamasidiqovna.....	429
KONFLIKT VAZIYATLARNI BARTARAF ETISHDA DJIL SHPIGEL USULI Kasimova Nargiza Dilmuratovna, Adhamov Shohjahon Abdullajon o‘g‘li.....	432
O‘SMIRLARDА DESTRUKTIV XULQ KO‘RINISHLARINING NAMOYON BO‘LISHI Rahmonova Nigina Aminjonovna.....	435
TALABALAR KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI Karimov Farxod Toshtemirovich.....	439
O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI Karimova Madina Xolmurotovna.....	443
HUKMNI HUQUQIY BAHOLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI Nishanov Sanjar Yuldbayevich.....	446

TALABALAR KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIATLARI

Karimov Farxod Toshtemirovich

karimov.f8208@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o‘qituvchisi*

Ma’lumki, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti bosqichida shaxs kamoloti, ijodkorligi, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ijodiy qobiliyatları masalasi o‘ziga xos yondashuvlar doirasida talqin etiladi.

Xususan, o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom ta’limotlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sharqda “Muallimi soniy” (“Ikkinchi muallim”) nomi bilan mashhur Abu Nasr Forobiy[1] ta’lim-tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim hisoblanadi. Ulug‘ mutafakkir ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘quvchilarga singdiriladi, kasbhunarga oid ko‘nikmalar hosil qilinadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi, deb uqtiradi. Alloma pedagogning faoliyati haqida to‘xtalib shunday yozadi: o‘qituvchining vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshab ketadi. Shu sababli o‘qituvchi ko‘rgan va eshitganlarining barchasini yaxshilab esda saqlab qolishi, bilmog‘i, aql farosatga, chiroylı nutqqa ega bo‘lmog‘i va o‘quvchilarning aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur, o‘qituvchi faqat fan bilan shug‘ullanib qolmay, balki o‘z bilimlarini o‘quvchilariga ham berishi, bunda mashaqqatli mehnatdan charchash nimaligini bilmasligi lozim. O‘qituvchi ichishdan o‘zini tiyishi, haqiqatgo‘y bo‘lib yolg‘onni va yolg‘on aytganni yomon ko‘rishi, g‘ururli bo‘lishi va o‘z or-nomusini qadrlashi, o‘zining o‘quvchilariga nisbatanadolatli bo‘lishi, ko‘zlagan maqsadiga erishishda qat’iylik ko‘rsata bilishi lozim [1]. Forobiyning ta’kidlashicha, bunda insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi. Bu esa har qanday xatarli harakatdan xabardor bo‘lganligi tufayli baxtga erisha oladigan odamlardir.

XI asrda yashab ijod etgan, o‘zining pedagogik g‘oyalari bilan tanilgan Yusuf Xos Hojib ilqli, ma’rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash’al kabi yo‘lni yoritib, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi va yaxshi-yomonni farq etishni o‘rgatadi, deya o‘qituvchi mehnatini ko‘kka ko‘taradi[2].

Yusuf Xos Hojib yurtni idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo‘lib, birinchisi,adolatli siyosatni yurituvchi beklar va, ikkinchisi, dono olimlar,

o‘qituvchilar deydi. Chunki siyosatchilar yurtni boshqarsa, olimlar ma’rifiy yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi [2].

Nasriddin Tusiyning o‘qituvchi mehnati borasidagi fikrlari g‘oyatda katta ahamiyatga ega bo‘lib, olim o‘qituvchi oldiga shunday talablarni qo‘yadi: o‘qituvchi munozaralarni olib borishni bilishi, bilimini inkor etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni, o‘z fikrining to‘g‘riligiga ishonishi va ishontira olishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumllalari mantiqiy ifodalangan bo‘lishi, shu bilan birga, o‘qituvchi sof vijdonli, rostgo‘y, shoshmasdan, ishonchli qilib qat’iy gapiradigan bo‘lishi lozim, deya ta’kidlaydi [3].

Q.Nazarovning ta’kidlashicha, G‘arb falsafiy fikrlar taraqqiyotida ham o‘qituvchining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida yoritiladi. Xususan, Suqrot, Platon, Aristotel, Sitseron, Kvinitianva boshqa mutafakkirlar bu boradagi o‘zlarining qimmatli fikrlarini bayon qilganlar [107].

Qadimgi Rimda so‘zlashni bilish, muloqotni tashkil etish, amalgalashish, tinglovchilarni o‘ziga jalb eta olish, ya’ni notiqlik san’atiga alohida e’tibor berilgan. Suqrotning ta’kidlashicha, o‘qituvchining ijodkorligi, uning notiqlik san’ati bu tayyor axborotni o‘quvchiga yetkazishga emas, balki o‘quvchilarni haqiqatga intilish, mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga qaratilganligidadir [4].

Dunyoda mashhur notiq sifatida tanilgan Sitseron (er.av.105-43 yilar) haqiqiy notiq insonlarning xohish-irodalaridan kelib chiqib, ularni faollashtirish, faol harakat qilishga undashini ta’kidlaydi va o‘qituvchi uchun bu sifat yetakchi o‘rinda turishini uqtiradi [4].

Kvintilian (er.av.30-96 yil) insonning aqli mustaqil faoliyat ta’sirida rivojlanadi, shuning uchun tarbiya o‘quvchidagi mustaqil fikrlash va tanlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi[4].

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining shaxs kreativligi, o‘qituvchining kreativ qobiliyatları xususidagi fikrlarining konseptual asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shaxsdagi kreativlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi eng muhim omil – mustaqillik bo‘lib, bunda ta’lim jarayonida mustaqil faoliyat bilan shug‘ullanish uchun zaruriy shart-sharoitni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fikrlarning zamonaviy talqini sifatida bugungi kunda o‘qituvchi shaxsida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida pedagogik-psixologik tadqiqotlarning markaziga ko‘chdi.

Bugungi kunda respublikamizda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, ularning barchasi yagona maqsad – ta’lim-tarbiya jarayonini demokratiyalashtirish, uning shaxsga yo‘nalganligini ta’minalash va o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Shaxs jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchi ekanligi, shuningdek, shaxsning intelektual va kreativ imkoniyatlari uning mustaqil va ijodiy faoliyati ta’sirida yanada rivojlanishi haqidagi ilmiy xulosalar zamonaviy pedagogikaning shaxsga yo‘naltirilgan mazmundagi yangi paradigmasining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning yangi yo‘nalishida, ya’ni ta’limni shaxsga va shaxs ijodkorligiga yo‘naltirish, interfaol ta’lim muhitini qaror toptirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Ko‘rsatib o‘tilgan tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi to‘liq yechilmagan bo‘lsa-da, u bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligining asosini tashkil etuvchi hodisalardan biri sifatida qisman yoritilgan.

Angliyalik tadqiqotchi Depati Patti (Drapeau Patti) talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish quyidagi yo‘llar orqali amalgga oshirilishini ta’kidlaydi:

- kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, ya’ni talabalardagi fikrlash ravonligi, moslashuvchanlik, o‘ziga xoslik, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarini shakllantirish;

- amaliy kreativ harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish, ya’ni talabalardagi kreativlikning shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi kontrsuggestiv, tezaurus va interaksion omillarni bartaraf etish orqali ulardagi interfaollik va muloqotchanlikni rivojlantirish;

- kreativ faoliyat jarayonlarini tashkil etish - mazkur yo‘l talabalarni nostandard vaziyatlar bilan to‘qnashtirish, muammoni yechish va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish asosida ijodiy fikrlashga imkon beradi;

- kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish – talabalarining qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ilg‘or tajribalar, ixtiolar, texnologiyalarni izlab topish va amaliyotga tatbiq etish [46].

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi ijod, ijodkorlik tushunchasining tarkibiy qismi sifatida yoritiladi.

Ijod – insonning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Rus va xorijiy pedagog-psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil etadigan bo‘lsak, ularda kreativlik shaxs ijodkorligining asosini tashkil etuvchi tushuncha sifatida talqin etilganligiga guvoh bo‘lamiz:

- kreativlik qarama-qarshiliklar, muammoli vaziyatlarni bartaraf etish imkoniyati (G.Altshuller, M.Zinovkina);
- kreativlik – iqtidorga bog‘liq bo‘lmagan holda, shaxsning barcha sohalardagi faolligi, ijodkorlik qobiliyati (N.Drujinin);
- kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalarni majmuyi (Ken Robinson);

- kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi lozim (Gardner);
- kreativlik muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish (Emebayl);
- kreativlik – individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyatini xislati (Dj.Gilford).

Yana bir guruh tadqiqotchilar shaxs kreativligining shaklanishi bilan bog‘liq turli jihatlarni tadqiq etishgan. Jumladan, T.Galkina va L.Xusnidinovalar yuqori va quyi kreativlikka ega shaxslarning xulq-atvoridagi o‘ziga xosliklar, verbal kreativlik masalalarini o‘rgangan bo‘lsa, V.Drujinin, Y.Korsunskiy, Y.Tuniklar shaxs kreativligining rivojlanishida ijtimoiy muhit, munosabatlar, ta’limiy muhit, shuningdek, oilaviy munosabatlar va shart-sharoitlar ta’sirini tahlil etgan.

Tadqiqotchilar Z.Kalmikova va M.Maxmutovlar muammoli o‘qitish metodlarini shaxs kreativligini shakllantirishdagi asosiy vositalardan biri sifatida yoritadilar.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, kreativlik muammosi falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy-pedagogika, umumiy psixologiyaga oid tadqiqotlar doirasida muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq mazkur izlanishlarda asosiy e’tibor kreativlikning shaxs intellektual salohiyati bilan bog‘liq jihatlari, tafakkurdagi ijodiylik, intelektual kreativlik masalalariga qaratilgan.

Intelektual kreativlik jamiyat, xalq manfaatlari uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan yangi g‘oya, kashfiyotlarning yaratilishi bilan tavsiflansa, pedagogik kreativlik o‘quvchi shaxsining rivojlanishi hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta’minalashga yo‘naltiriladi.

Mualliflar o‘qituvchining ijodiy faoliyati faqat ta’lim mazmuni, uning metodlari yoki mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari sohasida “yangi, ilgari mavjud bo‘lmaganlarini” yaratishga qaratilgan bo‘lsa, bunda o‘quvchi shaxsi e’tibordan chetda qolsa, bunday innovatsiya va ijod pedagogikada ijobiy baholanishi mumkin emasligini ta’kidlaydilar.

Maqolada ko‘tarilgan muammoga yaqin ilmiy izlanishlarda masalaning quyidagi jihatlari o‘z aksini topgan:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-shaxsiy shakllanishiga yo‘naltirilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularda aynan kreativ qobiliyatni rivojlantirish masalasiga bag‘ishlangan mustaqil tadqiqot ishlari olib borilmagan.

2. Xorijdagi hamda respublikamizdagи pedagoglar va psixologlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda kreativlik atamasi ijodkorlik va pedagogik ijodkorlik tushunchalarining sinonimi sifatida yoritilgan. Kreativlikning ijodkorlik asosini tashkil etuvchi alohida xususiyati yoki uning dastlabki bosqichi ekanligi mavjud tadqiqotlarda yetarlicha ochib berilmagan.

3. Aynan interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosda talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Bu esa o‘z navbatida, talabalarda kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish tuzilmasini ishlab chiqish va shu asosda interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish orqali jarayon samaradorligini oshirishning integrallashgan pedagogik tizimini amaliyotga tatbiq etish zaruratinis asoslaydi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika nazariyasi. 1-qism /M.X.To‘xtaxo‘jayeva va boshq. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 379-b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig /So‘z boshi muallifi B.To‘xliyev; rassom Sh.Muhammadjonov. – T.: Yulduzcha, 1989. – 192-b.
3. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. – 397-b.
4. Nazarov Q. G‘arb falsafasi. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 719-b.

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Karimova Madina Xolmurotovna

karimova1810@gmail.com

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи o‘qituvchisi*

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo‘lgan mакtabning roli har qachongidan ko‘ra o‘sdi.

Shu munosabat bilan o‘quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakillantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta’lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi mакtabning vazifalaridir.

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir mакtab o‘quvchisining obyektiv vajlariga, qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sog‘lig‘ini, hissiyotlarini hisobga olish lozim. Bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va namoyon bo‘ladi.